



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **JAMIYATDA SUN'YIY INTELLEKT ASOSIDAGI KOMMUNIKATSION MUHITNING SHAKLLANISHI VA UNING IJTIMOYIY REFLEKSIYAGA TA'SIRI**

**Davronov Bahodir Tohirjonovich**

Namangan davlat universiteti, tadqiqotchisi

### **Annotatsiya**

Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining asosida shakllanayotgan zamonaviy kommunikatsion muhitning jamiyatdagi ijtimoiy ong, o'zaro munosabatlar va refleksiv tafakkur tizimlariga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt vositalarining axborot almashinuvi, virtual identifikatsiya, ijtimoiy integratsiya va shaxslararo muloqot madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, kommunikatsion muhit, ijtimoiy refleksiya, raqamli transformatsiya, virtual ong, axborot manipulyatsiyasi, identitet, ijtimoiy ong, raqamli kommunikatsiya, sun'iy ong tizimlari, sotsiopsixologik ta'sir, zamonaviy jamiyat.

## **ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАЦИОННОЙ СРЕДЫ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБЩЕСТВЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНУЮ РЕФЛЕКСИЮ**

**Давронов Бахадир Тохиржонович**

Наманганский государственный университет, исследователь

### **Аннотация**

В статье анализируется влияние современной коммуникационной среды, формирующейся на основе технологий искусственного интеллекта, на общественное сознание, межличностные отношения и системы рефлексивного мышления. С научно-теоретической точки зрения рассматривается, каким образом в условиях цифровой трансформации средства искусственного интеллекта воздействуют на обмен информацией, виртуальную идентификацию, социальную интеграцию и культуру межличностного общения.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, коммуникационная среда, социальная рефлексия, цифровая трансформация, виртуальное сознание, манипуляция информацией, идентичность, общественное сознание, цифровая коммуникация, системы искусственного сознания, социопсихологическое воздействие, современное общество.

## **THE FORMATION OF AN ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED COMMUNICATIVE ENVIRONMENT IN SOCIETY AND ITS IMPACT ON SOCIAL REFLECTION**

**Davronov Bahodir Tohirjonovich**

Namangan State University, Researcher

### **Abstract**

This article analyzes the impact of the modern communicative environment, formed on the basis of artificial intelligence technologies, on social consciousness, interpersonal relationships, and systems of reflexive thinking. From a scientific and theoretical perspective, it examines how, under conditions of digital transformation, artificial intelligence tools influence information exchange, virtual identification, social integration, and the culture of interpersonal communication.

**Keywords:** artificial intelligence, communicative environment, social reflection, digital transformation, virtual consciousness, information manipulation, identity, social consciousness, digital communication, artificial cognitive systems, socio-psychological influence, modern society.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining determinantal omillari qatorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) tizimlari asosida shakllanayotgan yangi kommunikatsion muhit alohida epistemologik va sotsiomadaniy ahamiyat kasb etmoqda. XXI asr boshlaridan boshlab insoniyat sivilizatsiyasi raqamli paradigмага asoslangan ijtimoiy tizimlar sari jadal yo'nala boshladi. Bunday transformatsiyalar jarayonida axborot oqimlarining intensivligi, ularni uzatish va qabul qilishdagi algoritmik murakkablik, virtual identifikatsiyaning murakkab konstruktiv mexanizmlari ijtimoiy ong va reflektiv tafakkur tuzilmalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt vositalari yordamida yuzaga kelayotgan kommunikatsion muhit insonning o'z-o'zini anglash, ijtimoiy holatlarga nisbatan pozitsiya belgilashi, shaxslararo va guruhlararo o'zaro ta'sirda ijtimoiy refleksiyaning shakllantirishida yangi bosqichni boshlab berdi.

Endilikda insoniyat ijtimoiy borliqni idrok etishda faqat biologik emas, balki algoritmik tafakkur yordamida ham yo'naltirilmoqda. Bu esa ijtimoiy ong, tanqidiy fikrlash va madaniy identitetga doir klassik konsepsiyalarning qayta ko'rib chiqilishini talab qilmoqda. Mazkur maqola zamonaviy jamiyatda sun'iy intellekt asosida shakllanayotgan kommunikatsion muhitning ijtimoiy refleksiya ko'rsatayotgan ko'p qirrali ta'sirini ilmiy-nazariy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki kommunikatsion muhit inson faoliyatining barcha jabhalariga kirib borar ekan, u nafaqat axborot almashuvining vositachisi, balki ong shakllanishining, axloqiy pozitsiya tanlashning, ijtimoiy qadriyatlar tizimini qabul qilish yoki rad etishning fundamental ijtimoiy maydoniga aylanmoqda.

Zamonaviy SI asosidagi kommunikatsiya shakllari orqali insonlar o'z shaxsiy hayotlarini namoyish qilish, ideologik qarashlarini ifoda etish, hissiy holatlarini translyatsiya qilish, jamiyatdagi muayyan voqe'larga nisbatan reflektiv munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Biroq bu jarayonlarning chuqur mohiyatini anglash uchun kommunikatsiyaning ontologik tabiati, sun'iy intellektning kognitiv imkoniyatlari va refleksiya kategoriyasining zamonaviy talqinlari o'rtasidagi murakkab munosabatlar tizimini o'rganish muhim hisoblanadi. Bugungi raqamli jamiyatda ijtimoiy kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida sun'iy intellektga ega algoritmlar va neyrotarmoqlar faoliyat yuritmoqda. Ular inson xatti-harakatini bashorat qilish, ijtimoiy munosabatlarni modellashtirish, madaniy identitet elementlarini tahlil qilish va hatto yangilarini yaratish imkonini bermoqda.

Jumladan, kommunikatsion tarmoqlarda — ijtimoiy media, virtual forumlar, metaversumlar va boshqa raqamli platformalarda — insoniyat sun'iy tarzda yaratilgan axborotlar vositasida o'z dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va tanqidiy tafakkur darajasini shakllantirmoqda. Bunday transformatsion vaziyatda shaxsning ijtimoiy refleksiya faqatgina real muhitga emas, balki virtual ijtimoiy-kognitiv tizimlarga ham bog'liq bo'lib qoldi. Bu esa refleksiyaning an'anaviy modeliga zid ravishda yangi turlarining — masalan, algoritmik refleksiya, raqamli refleksiya yoki sun'iy refleksiya — shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Refleksiya shaxsning o'z faoliyati, xatti-harakatlari, ijtimoiy tajribalari va o'zini o'zi ongli tarzda kuzatib, baholash jarayonidir. U jamiyatdagi har qanday axborot oqimi, ijtimoiy hodisa yoki madaniy voqe'lik bilan bevosita aloqador [1]. Shu ma'noda, sun'iy intellekt vositalari bilan to'ldirilgan kommunikatsion muhitda refleksiya yangi sifat jihatlarini kasb etmoqda. Bugungi kunda inson ijtimoiy muhitdagi real holatni emas, balki algoritmlar tomonidan shakllantirilgan, filtrlangan yoki manipulyatsiya qilingan axborotga asoslangan voqe'likni idrok etmoqda. Bu esa refleksiya jarayonining avvalgi individual-kognitiv mohiyatini o'zgartirib, uni ijtimoiy-texnologik tizimning bir qismiga aylantirmoqda. Jumladan, algoritmlar tomonidan

taqdim etilgan tavsiyalar, kontentlarni tanlash va muloqot doiralarini belgilash orqali shaxsning refleksiv faoliyatiga sezilarli darajada yoʻnaltiruvchi taʼsir koʻrsatilmoqda [2].

Shu nuqtai nazardan qaralganda, SI asosidagi kommunikatsion muhit nafaqat ijtimoiy oʻzaro taʼsirning vositasi, balki oʻziga xos refleksiya generatoriga aylangan. Yaʼni inson oʻzining tanlovlari, qadriyatlari va xulq-atvorini shakllantirishda sunʼiy algoritmlarga tayangan holda oʻzini oʻzi tushunishga harakat qilmoqda. Bu holat esa jamiyatdagi refleksiya jarayonlarining tabiiyligi, mustaqilligi va chuqurligiga nisbatan shubha uygʻotadi. Masalan, Facebook, TikTok yoki X (Twitter) kabi ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmlar foydalanuvchining ilgari bildirgan qiziqishlari asosida unga yangi axborotlar taqdim etadi. Bu esa refleksiv tafakkurning erkinligi va tanqidiyligiga zarar yetkazadi, chunki inson oʻz ongini algoritmik darajada filtrlangan axborotlar asosida shakllantiradi [3].

Refleksiyaning ijtimoiy shakllanishida kommunikatsion kontekstning oʻrni beqiyosdir. A. Shyuts, G. Gadamer, Y. Habermas kabi klassik ijtimoiy-falsafiy tafakkur vakillari kommunikatsiyani ijtimoiy ong shakllanishining negizi sifatida talqin qilganlar. Jumladan, Y. Habermas “kommunikativ aql” konsepsiyasi orqali har qanday ijtimoiy jarayonning mohiyati muloqotda, dialogik tafakkurda mujassam ekanini asoslab beradi [4]. Shu bois sunʼiy intellekt asosida shakllanayotgan muloqot tizimi oʻz mohiyatiga koʻra insoniyat tarixidagi kommunikatsiya shakllaridan tubdan farqlanadi. Chunki bu tizimda muloqotning mazmuni inson tomonidan emas, balki sunʼiy algoritmlar tomonidan ham belgilanishi mumkin [5]. Bu esa kommunikatsiyani manipulyativ, asimmetrik va baʼzan avtonom refleksiya imkoniyatini cheklovchi tizimga aylantiradi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi global raqamli muhitda insoniyat sunʼiy intellektning kognitiv vositalari yordamida oʻz ijtimoiy munosabatlarini, madaniy identitetini va ong strukturalarini shakllantirishga kirishgan. Bu esa oʻz navbatida jamiyatda yangi ijtimoiy tafakkur paradigmalari, refleksiya shakllarini va axloqiy pozitsiyalarni vujudga keltirmoqda. Yangi kommunikatsion muhit oddiy vosita emas, balki sotsiomadaniy ongni qayta formatlovchi kuchli transformator sifatida namoyon boʻlmoqda [6]. Bu muhit orqali nafaqat axborot, balki ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy rollar, norma va deviantlik mezonlari ham translyatsiya qilinmoqda. Shu sababli maqolada nafaqat kommunikatsion texnologiyalarni tavsiflash, balki ularning refleksiv ongga qanday psixososial va ijtimoiy taʼsir koʻrsatayotganini ochib berish muhim ilmiy vazifa sifatida belgilangan.

Tadqiqotning maqsadi sunʼiy intellekt asosida shakllangan kommunikatsion muhitning jamiyatdagi refleksiv ong va tafakkur tizimlariga qanday taʼsir koʻrsatayotganini ijtimoiy-falsafiy va axborot-psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilishdan iborat.

### **Adabiyotlar tahlili**

Jamiyatda kommunikatsiya va refleksiya oʻrtasidagi murakkab uzviy bogʻliqlikni oʻrganishda Peter R. Lewis va Stefan Sarkadi (2023) tomonidan ilgari surilgan “Reflective Artificial Intelligence” konsepsiyasi nihoyatda dolzarb boʻlib, u sunʼiy intellekt agentlarining anʼanaviy kognitiv vazifalar bilan bir qatorda reflektiv qobiliyatga ega boʻlishi ehtiyojini taʼkidlaydi. Ularning tahliliy yondashuvi shuni koʻrsatadiki, hozirgi kundagi koʻpgina AI tizimlarida inson ongining chuqur oʻz-oʻzini anglash va ijtimoiy kontekstda oʻzini baholash xususiyati mavjud emas. Shunga koʻra, reflektiv AI arxitekturasi, yaʼni oʻz qarorlarini qayta koʻrib chiqish, kognitiv qayta ishlash va ijtimoiy vaziyatni inobatga olish imkoniyatlari, sunʼiy intellekt asosidagi kommunikatsion muhitning inson refleksiyasi bilan integratsiyasi uchun muhim ilmiy platforma hisoblanadi.

Bundan tashqari, Samuele Bolotta va Guillaume Dumas tomonidan ishlab chiqilgan “Social Neuro AI” konsepsiyasi ijtimoiy oʻrganish vositalarini sunʼiy intellekt arxitekturasiga integratsiya qilish orqali ijtimoiy oʻzaro taʼsirlarni AI ning “qora materiyasi” sifatida koʻradi. Ularning yondashuvida biologik ijtimoiy oʻrganish mexanizmlari asosida sunʼiy agentlar madaniy konvensiya va til oʻzligini shakllantirishi, shuningdek, real insoniy ijtimoiy munosabatlarni

modellashtirishi mumkinligi ilgari suriladi. Bu esa kommunikatsion muhitning o‘z-o‘zidan refleksiya imkoniyatlarini ochib beradi, ya’ni agent va foydalanuvchi o‘rtasidagi aloqani dialogik ijtimoiy tafakkurning shakllanish jarayoni sifatida talqin qilishga imkon yaratadi.

### **Metodologik qism**

Ushbu maqolada zamonaviy kommunikatsion muhitning sun’iy intellekt asosida shakllanishi va uning ijtimoiy refleksiya jarayonlariga ta’sirini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks tadqiqot metodlari uyg‘unligiga asoslangan metodologik yondashuv qo‘llanildi. Xususan, fenomenologik talqin orqali kommunikatsiya va refleksiya tushunchalarining ichki ma’nosi ochib berildi; sotsiologik kontent-tahlil metodi yordamida sun’iy intellekt vositalari orqali uzatilayotgan axborot oqimlarining ijtimoiy ongdagi aks sadosi va reflektiv jarayonlarga ta’siri tizimli o‘rganildi; komparativ yondashuv orqali an’anaviy kommunikatsiya modellari bilan sun’iy intellektga asoslangan virtual muloqot shakllari o‘rtasidagi strukturaviy va funksional farqlar aniqlab chiqildi. Shuningdek, kognitiv-diskursiv tahlil yordamida sun’iy algoritmlar vositasida shakllangan axborotlar inson ongida qanday reflektiv fikrlarni uyg‘otishi tahlil qilindi. Bu esa ijtimoiy ong va tafakkur tuzilmalarining transformatsiyasini ko‘rsatishga imkon berdi.

Natijada mavzuga oid empirik va nazariy manbalarni tizimli tahlil qilish, shuningdek, tanqidiy-metodologik yondashuvlar orqali mavjud ilmiy qarashlarni qayta baholash asosida maqola ilmiy-nazariy chuqurlikka erishdi.

### **Natijalar**

Olib borilgan nazariy-metodologik tahlillar natijasida aniqlanishicha, sun’iy intellekt asosida shakllanayotgan kommunikatsion muhit jamiyatdagi ijtimoiy refleksiyaning struktura va mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, algoritmik axborot oqimlari inson ongining tanqidiylik darajasini belgilashda faol vositachiga aylanmoqda; shaxsning o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy haqiqatni qayta qurishida texnologik interfeyslar orqali yo‘naltirilgan reflektiv tafakkur shakllanmoqda; kommunikatsiya jarayonlarining real vaqt rejimida sun’iy algoritmlar tomonidan tartibga solinishi natijasida ijtimoiy ongda simulyativ voqeliklar hukmronligi kuchaymoqda.

Bundan tashqari, madaniy identitet elementlarining algoritmik tanlanishi va ularga nisbatan ijtimoiy baholashning reflektiv emas, balki tavsiyaviy tizimlar asosida shakllanishi kuzatilmoqda. Bu esa insonning individual refleksiya subyekti sifatidagi mavqei asta-sekin raqamli axborot tizimlarining strukturaviy bosimi ostida transformatsiyalanayotganini ko‘rsatadi. Natijada kommunikatsion muhitning sun’iy intellektga tayanib rivojlanishi nafaqat axborot oqimini tezlashtiradi, balki ongning mazmuniy konstruksiyalarini ham algoritmik me’yorlar asosida qayta shakllantirib, reflektiv tafakkurning texnologik konstruksiyalarga qaramligini kuchaytiradi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy haqiqatni anglash, baholash va unga nisbatan tanqidiy pozitsiya egallash imkoniyatlarini chegaralaydi hamda shaxsiy va kollektiv refleksiyaning tabiiy rivojlanishiga sun’iy intervensiyalar kiritilishiga olib keladi.

### **Muhokama**

Sun’iy intellekt asosidagi kommunikatsion muhitning ijtimoiy refleksiya shakllanishiga ko‘rsatayotgan murakkab va ko‘p qirrali ta’siri atrofida xalqaro ilmiy doiralarda keskin bahs-munozaralar yuzaga kelmoqda. Jumladan, britaniyalik tadqiqotchi Peter R. Lewis va uning ilmiy hamkori Stefan Sarkadi o‘zlarining “Reflective Artificial Intelligence” konsepsiyasida [9] sun’iy intellekt agentlari reflektiv qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerakligini asoslab, bu refleksiya insoniyatning tafakkurga asoslangan ongli qaror qabul qilish modeliga sun’iy intellekt orqali yaqinlashish zarurligini ta’kidlaydi. Ular fikricha, mavjud kommunikatsion muhitda insonlarning ijtimoiy refleksiya ancha sathiy va algoritmik boshqariluvchan bo‘lib qolmoqda, bu esa inson tafakkurining mohiyatini xavf ostiga qo‘yadi. Ular refleksiyaning “axborotga ongli ravishda javob qaytarish” emas, balki “avtonom tanqidiy introspektiv jarayon” deb talqin qilib, SI bu jarayonni to‘liq o‘zlashtira olmaydi, degan ilmiy tanqidni ilgari suradilar.

Bunga qarshi ravishda fransuz olimi Guillaume Dumas va italiyalik tadqiqotchi Samuele

Bolotta tomonidan ilgari surilgan “Social Neuro AI” modeli sun’iy intellektning reflektiv imkoniyatlari ijtimoiy o‘zaro ta’sir vositalariga singdirilishi orqali yangi kommunikatsion reflektivlik modelini taklif etadi. Ular SI agentlarining jamiyatdagi ijtimoiy signallarni — masalan, mimika, nutq intonatsiyasi va madaniy kodlarni — tushunish orqali axborotni faqat yetkazish emas, balki uni ijtimoiy kontekstda talqin qilish va qayta tahlil etish qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkinligini asoslashga urinadilar. Dumas va Bolottaning pozitsiyasiga ko‘ra, refleksiya faqat individual tafakkurning mahsuli emas, balki ijtimoiy konstruksiyadir va sun’iy intellekt ushbu konstruksiyani simulyatsiya qilish orqali insonlar o‘rtasidagi reflektiv aloqalarni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu ikki yondashuv o‘rtasidagi asosiy tafovut shundaki, Lewis refleksiyani chuqur ontologik hodisa sifatida faqat biologik ongga xos deb bilsa, Bolotta va Dumas uni ijtimoiy tashqi stimullar hamda ijtimoiy neyrointeraksiyalarning mahsuli sifatida tasavvur qiladi. Natijada birinchi yondashuvda SI refleksiyani buzuvchi, insoniy tafakkurga xavf tug‘diruvchi kuch sifatida qaralsa, ikkinchisida esa u refleksiyaning evolyutsion bosqichi sifatida ko‘riladi. Mazkur maqolada esa aynan shu ikki yondashuvning uzviy sintezi orqali ijtimoiy refleksiya va kommunikatsion muhit o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimi falsafiy, sotsiologik va kognitiv jihatdan ko‘rib chiqildi.

### **Xulosa**

Sun’iy intellekt vositalarining jamiyatdagi kommunikatsion va reflektiv dinamikaga bo‘lgan ta’siri kompleks, ko‘p qatlamli va ziddiyatli bo‘lib, bu jarayonni faqat texnologik taraqqiyot doirasida emas, balki falsafiy, ijtimoiy-psixologik va epistemologik mezonlarda tahlil qilish zarur. Kelgusida bu muhitning inson ongi va ijtimoiy identitetga bo‘lgan ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganish, refleksiyaning sun’iy muhitda qanday shakllanishi va yo‘naltirilishini aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqish alohida ilmiy va amaliy dolzarblik kasb etadi. Demakki, bugungi kommunikatsion inqilob zamirida insoniyatning ontologik asoslarini qayta ko‘rib chiqish zarurati tobora kuchayib bormoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Suyarbek N. Sun’iy intellekt va insoniy ijodiy imkoniyatlar // *Innovation in the Modern Education System*. – 2025. – T. 5, № 48. – C. 244–248.
2. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish // *Global Science Review*. – 2025. – T. 4, № 5. – C. 175–182.
3. Qodirjonovna Q. N. va boshq. Sun’iy intellektning inson ongiga ta’siri // *Journal of New Century Innovations*. – 2025. – T. 77, № 1. – C. 243–248.
4. Karimberdiyevich O. M. va boshq. Sun’iy intellektning afzalliklari va kamchiliklari // *Izlanuvchi*. – 2024. – T. 1, № 1. – C. 75–85.
5. Nozima A., Shohbozbek E. Ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalarini joriy etishning boshqaruv strategiyalari // *Global Science Review*. – 2025. – T. 4, № 2. – C. 23–32.
6. Jalolov T. S. Sun’iy intellektning ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sirini o‘rganish: foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish // *Ensuring the Integration of Science and Education on the Basis of Innovative Technologies*. – 2024. – T. 1, № 3. – C. 31–37.